

## SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYACHILIGIDA INSON TAQDIRI VA RUHIY EVRILISHLAR TALQINI (“ODAM” HIKOYASI MISOLIDA)

**To`xteyeva Shaxzoda Omon qizi**

Termiz davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada taniqli adib Shukur Xolmirzayevning "Odam" hikoyasi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda qahramon Rahima momoning murakkab hayot yo'li orqali inson umrining falsafiy mohiyati va biologik qaytish qonuniyatlari ochib beriladi. Ayniqsa, asarda xotiraning qatlam-qatlam bo'lib teskari tartibda ochilishi, qarilikning "bolalikka qaytish" bosqichi sifatida talqin etilishi psixologik realizm nuqtai nazaridan yoritilgan. Maqolada insonning o'lim oldidagi ruhiy tiniqlashuvi "so'nish oldidagi alanga" tashbehi orqali tushuntirilgan hamda asarning tarbiyaviy-axloqiy ahamiyati, xususan, "rizolik" tushunchasining insoniyat hayotidagi o'rni xulosalangan.

**Kalit so'zlar:** Shukur Xolmirzayev, Rahima momo, xotira, ruhiy evrilish, bolalikka qaytish, vasiyat, o'zbek hikoyachiligi, Surxon vohasi, psixologik realizm, inson falsafasi.

Surxon vohasining taniqli, adabiyot ahlining ardoqli yozuvchisi bo'lgan Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotining hikoyachiligini yangi bosqichga ko'tardi. Uning asarlari samimiy hamda realistik bo'yoqdorlikka yo'g'rilganligi sababli ham asarlar adibning ichki olami hamda ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Garchi yozuvchi ko'plab hikoyalar yozganiga qaramasdan, "Odam" hikoyasi kitobxonlar uchun alohida bir olamni kashf etdi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, qisqa-qisqa hikoyalar orqali mazmun-mohiyatni aniq va lo'nda qilib ochib berilishi oson ish emas, ammo Shukur Xolmirzayev bu borada ustasi farang edi. "Odam" hikoyasi esa inson umrining mohiyati, xotira va biologik qaytish jarayonlarini badiiy tadqiq etishi bilan ajralib turadi. Hikoyaning bosh qahramoni Rahima momoning qiyinchiliklar bilan limo-limo to'lgan umr yo'li bilan davr manzarasini chizishni uddalagan Shukur Xolmirzayev qahramonning hayotini turli muhim qismlarga bo'lib krsatadi.

Birinchi bosqich: **yoshlik va shaxsiyatning Shakllanishi:** Rahima yoshligida mard, oriyatli qiz bo'lgan. Eri Shodmon polvonning xiyonatiga chidab turmay, uni devordan oshayotganda oyog'idan tortib yiqitishi uning isyonkor tabiatidan dalolat beradi.

Ikkinchisi: **Urush va Mashaqqatlar:** Eri vafotidan soʻng uch yetim bilan qolgan Rahima ocharchilik, sovuq va urush qiyinchiliklarini mardona yengib oʻtadi. Uning xarakteridagi qatʼiyat oʻgʻli Abdurahimdan "qoraxat" kelganda ham, kelini bolalarini tashlab ketganda ham sinmaydi. Shuningdek, hikoyada eng taʼsirli qism qilib Rahima buvi obrazining toʻqson yoshda bolalikka qaytish manzarasi ustalik bilan yoritib berilgan. Rahima buvi hayotining soʻnggi kunlarida voqealarni teskari tartibda eslay boshlaydi. Dastlab yaqin oʻtmishni (urushdan keyingi yillar), soʻngra urush davrini, oxir-oqibat esa oʻn besh yashar qizlik davrini eslaydi. Bu holat tibbiyotda esdan chiqarish deb atalsa-da, adib uni "odamning asliga qaytishi" sifatida talqin etadi.

Hikoyadagi yuqori xarakterga ega falsafiy qarashlardan biri bola boʻlib qolish falsafasidir. Hikoyada Adolat opa va Qurbon boboning suhbatini orqali inson umrining aylanasimon harakati ochib beriladi. Odam tugʻilganda emaklaydi (toʻrt oyoq), soʻng tayoqqa tayanadi (uch oyoq) va oxirida yana bola boʻlib qoladi. Bu ramziy maʼnoda insonning poklanib, dunyodan begubor ketishiga ishoradir:

Adolat opa yigʻladi. Chiqib eriga yolvordi:

— Choljon, qanday kunga qoldim? Enam yosh bola boʻlib qopti. Choljon... nahotki odam oxir-oqibatda shunday boʻlib qolsa-ya? Bu dahshat emasmi?.. Boyoqish enam! Yomon ayolmas edi. Bizni deb yashadi, umri oʻtdi. Endi hech narsani bilmay, eslolmay oʻtirdi. Bilgani, eslagani — bolaligi!.. Men qoʻrqib ketyapman, choljon? Menga qarang, nimani oʻylayapsiz?

— Kampir... odam bola boʻlib oʻlmaydi.

— Yoʻq, yoʻq! Bunda bir sir bor... Xoʻp deng. Men nakdini ham eshitganman. Topishmoq borku: toʻrt oyoqli boʻlib tugʻilarmish, keyin uch oyoqli boʻlarmish...

— Keyin ikki oyokdi.

— Toʻgʻri-da, odam tugʻilganda oʻrmlab yuradi, keyin bir nimaga suyanib yura boshlaydi, uch oyokdi boʻladi. Keyin ikki oyokdi, a?

— Soʻng qoʻliga hassa oladi, tagʻin uch oyoqli boʻladi. Keyin...

— Yana turt oyoqli bola... Bola! Choljon, haqiqatdan ham enam bola boʻlib qoldi-ku? Erta-indin hassaga tayanib ham yurolmay qoladi. Rostkamiga bola boʻladi... Nimaga ishonmaysiz?

— Kampir... odamzod bola boʻlib oʻlmaydi. Unda yashashida maʼno boʻlmas edi.

— Men ana shundan qoʻrqapman-da?

— Hovliqma, kampir... Sabr qil.

Hikoyaning xulosa qismidagi Rahima buvining oʻlimidan oldin hushiga kelishi hamda ruhining tiniqlashuvi hikoyaning kulminatsiyasi boʻlib xizmat qiladi. Adib buni soʻnish

oldidan birdan kuchli alanga olgan shanga o'xshatadi. Momoning onasi vasiyat qilganidek, u ham farzandlaridan rozi-rizolik so'raydi:

— Bolalarim, mendan rozi bo'linglar. Yaxshiligim o'tgan bo'lsa, unutmanglar. Yomonligim o'tgan bo'lsa... esdan chiqaringlar. Men hayotimdan roziman, sizlardan roziman. Mendan ham rozi bo'linglar. Bu bilan Shukur Xolmirzayev odamzodning hayoti qanchalik murakkab bo'lmasin, uning pirovard maqsadi poklik va rizolik ekanligini ta'kidlaydi.

Adibning "Odam" hikoyasi nafaqat bir ayolning hayot yo'li, balki butun insoniyat umrining falsafiy yakuni va mohiyati haqidagi yuksak proza namunasi. Ushbu asarda Rahima momo obrazi orqali insonning tug'ilishidan to vafotigacha bo'lgan davr — sho'xlik, isyon, mashaqqat va nihoyat asliga, ya'ni bolalikka qaytish jarayoni mahorat bilan chizilgan. Rahimaning yoshligi oriyatli va mard qiz timsolida gavdalanadi; u hatto o'lim to'shagida yotgan onasining "rostgo'y, mard, halol bo'linglar" degan vasiyatini butun umriga dasturilamal qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shukur Xolmirzayev. "Odam" (hikoya).
2. Quronov S. "Badiiy tahlil asoslari", Toshkent, 2016.
3. Karimov N. "O'zbek adabiyoti tarixi", Toshkent, 2010.